

**O'ZBEK VA NEMIS TILLARIDAGI ANTROPONIMIK
FRAZELOGIZMLARINING LINGVOMADANIY XUSUSIYATI**

GULSHAN ERGASHEVA

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va
adabiyoti universiteti tayanch doktoranti,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Nemis til kafedrası o'qituvchisi*

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'zbek va nemis tillaridagi ayrim frazeologizmlarining yasaliş xususiyati, ulardagi o'ziga xosliklar, ikki til miqyosida antroponomik frazeologizmlarining lingvomadaniyatshunoslikda tutgan o'rni hamda o'xshash va farqli jihatlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: frazeologizm, antroponomika, lingvomadaniyat, antroponomik tarkib, ekvivalentlik, tarjima.

Abstract

This article analyzes the formation characteristics of some phraseologisms in the Uzbek and German languages, their specific features, the role of anthroponomic phraseologisms in linguistic and cultural studies at the level of both languages, as well as their similarities and differences.

Keywords: phraseologism, anthroponomics, linguistic and cultural studies, anthroponomic content, equivalence, translation.

Kirish

Til – insoniyatning ijtimoiy-madaniy xotirasi bo'lib, u orqali millatning tarixiy merosi, mentaliteti va dunyoqarashi avloddan-avlodga o'tadi. Frazeologizmlar tilning eng barqaror va milliy rang-barang qatlamlaridan biri sifatida nafaqat kommunikativ vazifani, balki madaniy kodni ham bajaradi. Ayniqsa, antroponomik frazeologizmlar – tarkibida shaxs nomlari, tarixiy yoki mifologik personajlar, adabiy qahramonlar nomlari mavjud bo'lgan iboralar – xalq madaniyatining eng qadimiy qatlamlarini qatlamlarini saqlab kelmoqda.

Ularning lingvomadaniy tahlili orqali biz nafaqat til birliklarining semantik jarayonlarini, balki xalqning qadriyatlari, diniy tasavvurlari va stereotiplarini ham o'rganamiz. Shu bois ushbu maqolada o'zbek va nemis tillaridagi antroponimik frazeologizmlar lingvokulturologik nuqtayi nazardan taqqoslab tahlil qilinadi.

Maqolaning maqsadi – o'zbek va nemis tillaridagi antroponimik frazeologizmlarning kelib chiqishi, semantik transformatsiyasi va lingvomadaniy xususiyatlarini ochib berishdir.

Antroponimik frazeologizmlarda ismlarning qo'llanishi tasodifiy emas. Ular odatda diniy manbalar, adabiy asarlar, folklor va tarixiy shaxslardan kelib chiqadi. E. Piirainenning fikricha, frazeologizmlar xalqning “madaniy kodlari”dir. Demak, antroponimik frazeologizmlar orqali biz xalqning tarixiy-madaniy qarashlarini va dunyoqarash stereotiplarini tahlil qila olamiz.

O'zbek tilidagi antroponimik frazeologizmlar

O'zbek tilida antroponimik frazeologizmlar ko'pincha islomiy manbalar, Sharq adabiyoti va xalq dostonlari asosida shakllangan. Masalan:

- Majnun bo'lish – oshiq bo'lib aqlini yo'qotish (A. Navoiyning “Layli va Majnun”)

- Iskandarning ko'ngli to'lmas – qudratparast va ochko'z odam (Iskandar Zulqarnayn obrazi asosida)

- Odam Ato zamonidan qolga – juda qadimiy narsa.

- Avliyo bo'lib ketmoq – pokiza, halol inson haqida. Bu iboralarda o'zbek xalqining ishqiy sadoqat, poklik, qadimiylik va qudratparastlikka munosabati yaqqol ko'rinadi.

Nemis tilidagi antroponimik frazeologizmlar

Nemis tilida bunday frazeologizmlar ko'proq diniy obrazlar, Yevropa folklori va klassik adabiyot asosida shakllangan.

Masalan:

- Hans im Glück – omadli, sodda, hech narsadan g'am qilmaydigan odam (Grimm ertaklaridan).

- ein Don Juan sein –kimgadir muhabbat qo'yish, oshno bo'lish (Ispan

adabiyotidan).

- ein Adam und Eva Gespräch führen – qadimiy zamonlardan gapirish. Bu iboralarda muhabbat, omad, jasorat va qadimiylilik kabi madaniy stereotiplar mujassam.

Frazeologizmlar tilshunoslikning nafaqat semantik va grammatik jihatlarini, balki madaniyatshunoslik bilan uzviy bog'liqligini ham ko'rsatadi. Frazeologizmlar madaniyat bilan o'zaro bog'liqligini ko'p bora ta'kidlab kelmoqdamiz. Frazeologizmlar yordamida ma'lum bir xalqning orzu-umidlari, xotirasi, baxt tushunchasi kabi ma'nolarni ifodalashi mumkin.

Lingvomadaniy xususiyat har ikkala tilda ham mavjud. Bu orqali frazeologizmlarning ma'no-mohiyati yanada ko'rinadi, tilni sema'noligini ko'rsatib beradi.

Antroponimik frazeologizmlarni tilda qo'llanilishi bir-biridan uzoq bo'lgan bu ikki tilda ham o'ziga xos o'xshash tomonlari ham mavjud. Ularning paydo bo'lishida ayrim sabablar yaqqol ko'zga tashlanadi.

Dastlabki sabab diniy manbalar har ikki tilda frazeologizmlar shakllanishida o'ziga xos o'rin tutadi. Ikki xalqning adabiy manbalaridan kirib kelgan obrazlar umumlashtirilgan metaforik ma'noga ega (Majnun – Don Juan).

Antroponimik frazeologizmlar lingvomadaniy xususiyatiga ko'ra bir nechta farqli tomonlariga ham egadir. Misol uchun, o'zbek tilida ko'proq Sharqona ishqiyl qadriyatlar, sadoqat va halollik tasvirlansa, nemis tilida esa omad, muhabbat va ijtimoiy-axloqiy stereotiplar ustun turadi hamda folklor va ertak obrazlari keng tarqalgan.

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tmoq joizki, o'zbek va nemis tillaridagi antroponimik frazeologizmlar milliy madaniyatning til orqali ifodalanadigan "madaniy kodlari"dir. Ularning lingvomadaniy tahlili shuni ko'rsatadiki, har bir xalq frazeologizmlarda o'zining tarixiy xotirasi va qadriyatlarini saqlab keladi. O'zbek tilida ko'proq tarixiy va adabiy obrazlar qatnashgan frazeologizmlar mavjud bo'lsa, nemis tilida folklor va axloqiy stereotiplar asosiy manba bo'ladi. Bu frazeologizmlar xalqning madaniy tafakkuri va milliy mentalitetini ifodalashda

muhim vosita hisoblanadi.

Shu bois, antroponimik frazeologizmlarni qiyosiy o'rganish lingvokulturologiya, tarjimashunoslik va madaniyatlararo muloqot uchun nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Piirainen E. Widespread idioms in Europe and beyond: Toward a lexicon of common figurative units. Berlin: Peter Lang. 2007
2. Teliya V. N. Russian Phraseology: A Cognitive Linguistic Study. Amsterdam: John Benjamins. 1996
3. Krüger H. Idioms and cultural memory in German phraseology. Journal of Linguistic Studies, 12(2). 2018, 45–59.
4. Weber M. Religious imagery in German idiomatic expressions. European Language Review, 15(1). 2021, 33–47.
5. Rahmatullayev Sh. . O'zbek tilining frazeologik lug'ati. Toshkent: Fan. 1982
6. Salomov G. O'zbek frazeologiyasining nazariy asoslari. Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti. 1990